Abdukamol Mamadaliyev

# MENING KARYERAM

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
TOSHKENT-2025

UOʻK 794.1(075.8)
KBK 75.581ya73
M 61

**Mamadaliyev, Abdukamol**
Mening karyeram [Matn]: qoʻllanma. Abdukamol Mamadaliyev – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 80 b.

Mazkur qoʻllanma Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ)ning “Oʻzbekiston professional taʼlim tizimida islohotlar va zamonaviylashtirish jarayonlarini qoʻllab-quvvatlash” (TexVET Career) loyihasi doirasida “Integration group” tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi bilan hamkorlikda ishlab chiqildi.

UOʻK 794.1(075.8)
KBK 75.581ya73

ISBN 978-9910-678-56-1

© Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025

# MUNDARIJA


**SO'ZBOSHI ........................................................................ 6**

**KIRISH ........................................................................7**

Karyera rejalarimda ma'lumotlar xavfsizligi .................................. 8
Mening shaxsiy ma'lumotlarim ...................................................10
Hurmatli o'quvchi... ..................................................................... 11
Mening karyeramga yo'l ...............................................................12

**1. KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR......... 14**
1.1. Kasbga yo'naltirishning asosiy tushunchalari ..........................15
1.2. Kasbga yo'naltirishda kim nima qiladi? ....................................17
1.3. Maktabimning kasbga yo'naltirish bo'yicha takliflari ............18
1.4. Karyera bo'yicha onlayn xizmatlar...........................................27
1.5. Bandlikka ko'maklashish markazidan takliflar ........................ 39
1.6. O'g'il yoki qiz bolalar uchun tavsiyalar .................................... 41

**2. MENING KARYERA YO'LIM ................................................ 42**
2.1. Mening shaxsiy profilim ............................................................. 43
2.2. Mening ta'limdagi rejalarim........................................................ 58
2.3. Men hujjatlarimni qaysi OTM yoki kasbiy ta'limga topshiraman ........................................................................61
2.4. O'zbekistonda ish topish imkoniyatlari .................................. 70
2.5. Mening karyera tomon qadamlarim ....................................... 71

**3. HUJJATLAR ..................................................................73**
3.1. CV qanday yoziladi? .....................................................................73
3.2. Mening til bilish bo'yicha sertifikatlarim ..................................76
3.3. Kasb-hunarim (amaliy tajribam) to'g'risidagi sertifikatlarim ...............................................................................77
3.4. Boshqa maxsus sertifikatlarim ..................................................78
3.5. Foydalanilgan manbalar .............................................................79



“Har biringiz hayotda munosib o‘rningizni topishingiz uchun, biz bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarni to‘liq ishga solamiz”.

**Shavkat Mirziyoyev,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# SO‘ZBOSHI

**Hurmatli o‘quvchi!**

Siz qo‘lingizda ushlab turgan “Mening karyeram” kitobi sizning hayotdagi eng muhim yo‘nalishlardan biri — kasb tanlash va kelajakdagi shaxsiy muvaffaqiyatingizga yo‘l ochadigan dastlabki qadamlar haqida fikr yuritishingizga yordam beradi.

Bugungi kunda dunyo jadal o‘zgarmoqda. Yangilanib borayotgan mehnat bozori, raqamlashuv, yangi texnologiyalar va soha talablari yoshlardan nafaqat bilim, balki ongli tanlov qilish, o‘z yo‘lini topa olish, jamiyatda faol va munosib o‘rin egallash qobiliyatini ham talab qilmoqda. Shu boisdan, kasbga yo‘naltirish masalasi bugungi ta’lim siyosatimizning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatining markazida aynan siz — yangi avlod, yangi O‘zbekiston bunyodkorlari turibsiz. Prezidentimiz ta’kidlaganidek:

> *“Yoshlarimizga zamonaviy kasb-hunar o‘rgatib, ularning hayotda munosib o‘rin egallashiga zamin yaratish — bugungi kunning eng muhim vazifasidir.”*

Mazkur kitob sizga kasblar olami bilan tanishish, shaxsiy qobiliyatlaringizni baholash, ta’lim va ishlash imkoniyatlarini o‘rganish, zarur hujjatlarni tayyorlash va aniq maqsad bilan kelajak sari ilgarilashda ko‘makdosh bo‘ladi. Shuningdek, ota-ona, o‘qituvchi va maktab psixologlari bilan hamkorlikda to‘g‘ri kasb tanlashingizga ko‘mak beradi.

Biz ta’limni faqat darslar bilan cheklamaymiz — balki har bir o‘quvchining yuksak salohiyatini yuzaga chiqarish, hayotga tayyorlash va kelajakda o‘zini topishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilyapmiz.

Aziz yoshlar! Har biringizda betakror qobiliyat va imkoniyat bor. Ularni to‘g‘ri yo‘naltirish, mehnat qilish va kerakli qarorlar qabul qilish orqali siz ham yurtimizning yuksalishiga munosib hissa qo‘shasiz.

Kasbingizni muhabbat bilan tanlang. Umr yo‘lingizni maqsad va ishonch bilan boshlang.

**Hurmat bilan,**

**H.Umarova,**
**O‘zbekiston Respublikasi**
**Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri**

# KIRISH

Karyera pasporti bilan ishlash sizga kasb-hunar tanlash yo‘lida muvaffaqiyatli harakat qilishingizga yordam beradi. Shunchaki sinab ko‘ring! Siz o‘zingizning qiziqishlaringiz va kuchli tomonlaringiz haqida ko‘proq bilib olasiz va maqsadli karyera qarorlarini qabul qilasiz.

Ushbu qo‘llanmada siz karyera bo‘yicha barcha muhim ma’lumotlar va natijalarni yig‘ishingiz mumkin.



# KARYERA REJALARIMDA MA’LUMOTLAR XAVFSIZLIGI

Karyera pasporti sizning bir qancha shaxsiy ma’lumotlaringizni o‘z ichiga oladi.

*“Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega...”*

(O‘zR Konstitutsiyasi 27-modda)[1]

*“...Har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek, noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega...”*

(O‘zR Konstitutsiyasi 31-modda)[2]

Shaxsga doir ma’lumotlar xavfsizligi **“Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”**gi qonun bilan tartibga solinadi.

Siz o‘zingizning onlayn va ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlaringiz kabi, ushbu ma’lumotlarga ham e’tibor berishingiz va boshqalar tomonidan ruxsatsiz foydalanilmasligiga ishonch hosil qilishingiz kerak. Sizning ma’lumotlaringizdan kim foydalanishi mumkinligini o‘zingiz hal qilasiz.

Shunday ekan, karyera pasportingizni noto‘g‘ri to‘ldirmang.
Qanday ma’lumotlarni kiritganingizni diqqat bilan ko‘rib chiqing.

Ariza berish jarayonida shaxsiy ma’lumotlardan foydalanishda qaror siz yoki ota-onangiz (qonuniy vakil) tomonidan qabul qilinadi.

Shaxsiy ma’lumotlardan foydalanishda faqat aniq bir maqsadda ishlatish mumkinligiga ishonch hosil qiling va siz yoki ota-onangiz (qonuniy vakil) ma’lumotlarni uzatishga rozi bo‘lishi kerak.

1 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145.
2 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145.

Agar siz maktabni o‘zgartirsangiz, yangi maktabingizga o‘zingiz bilan karyera pasportini olib ketishingiz kerak. U sizning ko‘plab shaxsiy ma’lumotlaringiz va hujjatlaringizni o‘z ichiga oladi.

### Ta’lim tizimi sxemasi

Quyidagi sxemada siz O‘zbekistondagi ta’lim yoshi va ta’lim bosqichlari bilan tanishasiz. Ta’limning davomiyligi hamda qanday nomlanishini ko‘rishingiz mumkin.



## Mening shaxsiy ma'lumotlarim

Foto

*Karyera pasportim*

**Ismim:** ______________________________

**Familiyam:** ______________________________

**Maktabim:** ______________________________

**Sinfim:** ______________________________

**Manzilim:** ______________________________

**Telefon raqamim:** ______________________________

**Qiziqishim:** ______________________________

**Xarakterim:** ______________________________

**Temperamentim:** ______________________________

**Qobiliyatim:** ______________________________

**Kuchli tomonlarim:** ______________________________

**Kuchsiz tomonlarim** ______________________________

**Menga yoqadigan kasblar:** ______________________________

**Maqsadim:** ______________________________

*Karyera pasportini mazkur kursni to'liq tugatgandan keyin to'ldirsangiz o'zingiz haqingizda ko'proq ma'lumotga ega bo'lasiz.*
Karyera ma'lumotlari shaxsiy ma'lumot hisoblanadi.
Biz karyera pasportidagi ma'lumotlardan maslahat va ariza berish (masalan, karyera bo'yicha maslahat) uchun ishlatilishiga rozilik bildiramiz.

Ota-ona/vasiy imzosi ______________ ______________________________
(imzo) (F.I.SH.)

## Hurmatli o‘quvchi

Tez orada siz qaysi kasbni egallashni, qaysi oliy ta’lim muassasasi yoki qaysi texnikumda o‘qishni xohlayotganingizni hal qilasiz.

Buning uchun siz o‘zingizning kuchli tomonlaringiz, ko‘nikmalaringiz, qiziqishlaringiz va jismoniy qobiliyatlaringizni bilishingiz va ularni ishning turli talablari bilan taqqoslashingiz kerak. Bunda sizga kasb tanlash pasporti yordam beradi.

Uning yordamida siz karyera yo‘lida qanday qadamlar qo‘yganingizni, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi va yana nima qilish mumkinligi to‘g‘risida bilib olasiz. Pasport ma’lumotlari ota-onalar, maktab psixologlari yoki kasb bo‘yicha maslahatchilarga siz bilan kasbga oid suhbatlar uchun asos bo‘lishi mumkin.

Mazkur qo‘llanma siz uchun ish quroliga aylanadi, siz buni ustida bir necha yil ishlaysiz.

### U kirish va uch qismdan iborat:

**1-qismda siz tanishasiz**
Maktabingizdagi kasbga yo‘naltirish bo‘yicha takliflar bilan tanishasiz.

**2-qismda siz bilasiz**
Xarakteringiz, temperamentingiz, qobiliyatingiz, qiziqishlaringizdan kelib chiqib karyerangizni qanday rejalashtirish va maqsadga erishishni bilib olasiz.

**3-qismda siz qila olasiz**
Ariza topshirish uchun erishgan yutuqlaringizni tasdiqlovchi hujjatlarni (sertifikat, diplom, faxriy yorliq va boshqalar) saqlab qo‘ying.

**O‘zingizga ma’qul bo‘lgan va sizga baxt keltiradigan kasbni egallashda omad, ishonch va qat’iyatni tilaymiz!**

## Mening karyeramga yo‘l[3]

Quyida sizning karyerangiz yo‘lida muhim bo‘lgan qadamar va takliflar berilgan. Ba’zi qadamlar majburiy bo‘lib, boshqalari sizga yordam berish va eslatishga mo‘ljallangan.

### Qobiliyatlaringiz va qiziqishlaringizni aniqlang

✓ O‘z-o‘zingizni tashqaridan baholang.
✓ Kasbga yo‘naltirish bo‘yicha testlardan o‘ting.
✓ Imkoniyatlaringizni tahlil qiling.
✓ Amaliyot, mahorat darslarida qatnashing.
✓ Loyihalarni bajaring.

### Ma’lumot oling

✓ Maktab darsliklarida kasblar to‘g‘risidagi mavzular bilan tanishing.
✓ kasb.maktab.uz platformasida profil yarating.
✓ Maktabda tashkil etiladigan ekskursiyalarda qatnashing.
✓ Ochiq eshiklar kuni va mehnat yarmarkalarida qatnashing.

### Ko‘nikmalarni rivojlantiring

✓ Kasblarni sinab ko‘ring.
✓ “Ustoz-shogird” an’anasi bo‘yicha shogird bo‘ling.
✓ Kasbiy ta’lim darslarida qatnashing.
✓ Darslarda va darsdan tashqari loyihalarni amalga oshiring.
✓ Xobbi, yarim kunlik ishlarni bajaring.

### Maslahatdan foydalaning

✓ Kasb tanlash bo‘yicha ota-onangiz bilan maslahatlashing.
✓ Kelajakdagi kasbingiz, karyerangiz bo‘yicha maktab psixologidan maslahat oling.
✓ Sobiq bitiruvchilardan maslahat oling.
✓ Kasb egalaridan maslahat oling.

### Kasb tanlang va qaror qabul qiling

✓ Shaxsiy profilingizni (kasb.maktab.uz) to‘liq shakllantiring.
✓ O‘zingizni qiziqtirgan sohalarni toping, kasblar/o‘quv kurslarni tanlang.

---

3 https://www.berufswahlpass.de/

- ✓ Talablarni shaxsiy profil bilan solishtiring.
- ✓ Kasbga yo‘naltirish bo‘yicha mutaxassis maslahatini oling.
- ✓ Amaliyot/tayyorgarlikni yakunlang.
- ✓ Karyera qarorini qabul qiling.

### Ishga/o‘qishga so‘rov – ariza yuboring

- ✓ Rezyume yarating.
- ✓ Ish/o‘qish topishga ko‘maklashuvchi agentlik, korxona va tashkilotlarni aniqlang.
- ✓ Ish/o‘qish topish bo‘yicha internetdan tegishli platforma, saytlar va ilovalarni toping.
- ✓ Ariza manzillarini aniqlang – kompaniya/o‘qish haqida ma’lumot oling.
- ✓ Ariza xatlarini tayyorlang.
- ✓ Suhbatga tayyorlaning.
- ✓ Kasbga layoqatlilik testlarini mashq qiling.

### Karyerani boshlang

- ✓ Ish/o‘qish shartnomasini imzolang.
- ✓ Kompaniya/o‘qish va uy o‘rtasidagi transport aloqalarini aniqlashtiring.
- ✓ Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida ma’lumot oling.

1
qism

# KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Bu qism sizga maktabingizda karyera yo‘naltirish borasidagi ishlar haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, siz maktabingizdan tashqari boshqa tadbirlar va axborot imkoniyatlari haqida ma’lumot olasiz. Shunday qilib siz o‘z karyerangiz va rivojlanishingizni kim va qanday qo‘llab-quvvatlashini hisobga olgan holda yanada yaxshiroq rejalashtirishingiz mumkin.

Eng asosiysi, ota-onangizga kasb tanlash pasportingizni ko‘rsating. Chunki ular ham ma’lumot va yo‘nalish olish uchun qanday imkoniyatlaringiz borligini bilishni xohlashadi.

## Bu yerda siz quyidagi savollarga javob olasiz:

- Maktabingiz sizga nimalarni taklif qiladi? (kasblar haqida ma’lumot olish, shaxsiy imkoniyatlaringiz tahlili, ekskursiyalar, kasblarni sinab ko‘rish amaliyoti va boshqalar)
- Davlat bandlik muassasalaridan qanday amaliy tajriba olishingiz mumkin?
- Maktabingiz qanday kompaniya, korxona, tashkilot va muassasalar bilan hamkorlik qiladi?
- Kimga murojaat qilishingiz mumkin? (maktab psixologi, o‘qituvchilar)



## 1.1. Kasbga yo'naltirishning asosiy tushunchalari[4]




© Michaela Henn & Emad Helmy (2012)
**Rasm: Kasbiy muvaffaqiyatga yo'naltirish asoslari**

Karyera yo'riqnomasining asosiy ustunlaridan biri insonning iste'dodlari, kuchli tomonlari, ko'nikmalari, munosabatlari va resurslarini yoritishdir. Bu mijozlarga ularning kimligini, kuchlari, ko'nikmalari, munosabatlari va hayotda nimani muhim deb bilishlarini (qadriyatlari) tushunishga yordam beradi.

O'z shaxsiy profilidan xabardor bo'lish, ish izlovchilarni ko'rish, filtrlash va mavjud martaba imkoniyatlarini birinchi o'ringa qo'yish uchun "linzalar"ni taqdim etadi.

Yana bir asosiy ustun "Imkoniyatlardan xabardorlik" deb nomlanadi, bu mavjud o'rganish va ishlash imkoniyatlari haqida ma'lumot beradi.

Shaxslar doimiy ravishda ikkala ta'lim sohasini (o'z-o'zini anglash va imkoniyatlar) bir-biri bilan bog'laydilar, bu uzoqroq o'rganish va qaror qabul qilish jarayonini tashkil etadi, bu esa oxir-oqibat ular kesishadigan sohaga olib keladi. Konkret karyera variantlari ushbu

4 GIZ "Kasbiy muvaffaqiyatga yo'naltirish" 12-bet. (2024).

kesishmada joylashgan. Ular karyera rivojlanishi uchun yaxshi boshlang‘ich nuqtadir, chunki ikkalasi ham shaxsning profiliga mos keladi va bozorda, haqiqatan ham mavjud. Ikki, uch yoki to‘rtta variantning qaysi biri amalga oshishi ham tasodifga bog‘liq.

Uchinchi tamoyil yoki ustun o‘qitish metodologiyasida “yashirin”. Bu ishtirokchilarga o‘zlarining karyera rivojlanish jarayoniga egalik qilish va boshqarishni talab qiladi, ularga imkon yaratadi hamda boshqalar qatori muloqot, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish kabi bir qator “yumshoq ko‘nikmalar”ni beradi.

Mijozlarning o‘z-o‘zini anglash va mahalliy mehnat bozorlari, biznes tarmoqlari, korxonalar, kasblar yoki tadbirkorlik haqida “o‘rgatish” (aniqrog‘i ularni o‘rganishga yordam berish) uchun qanday maxsus mashqlar, faoliyat yoki vositalardan foydalanish mumkinligi haqida juda ko‘p moslashuvchanlik mavjud.

Asosiy tamoyil shundan iboratki, bu ular uchun amalga oshirilmaydi, aksincha, doimiy o‘zgarib turadigan mehnat bozorlari va hayotiy vaziyatlarda ularga barcha karyera qarorlarini qabul qilishlari uchun zarur bo‘lgan karyera boshqaruvi malakalarini beradi.

Dastur standartlashtirilgan bo‘lsa-da, natijalar juda individual bo‘lishi kerak. Kasbiy yo‘riqnoma bilan tanishgan o‘quvchilarda o‘zlariga tegishli jarayonda ishtirok etganlik hissi paydo bo‘ladi.

## 1.2. Kasbga yo‘naltirishda kim nima qiladi?

# MEN

- Kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maktab taklif qilayotgan imkoniyatlardan foydalaning.
- Kasblar va mehnat dunyosi haqida bilimlarga ega bo‘ling.
- Maqsadlaringizni belgilang.
- Bir yoki bir nechta kasblarni sinab ko‘ring.
- Ishga qo‘yiladigan talablar bilan o‘z imkoniyatlaringizni solishtiring.
- Ta’lim va kasb kurslari bo‘yicha maslahat oling.
- Karyera tomon qadamlaringizni rejalashtiring va ularni amalga oshiring.
- Karyerangiz uchun qaror qabul qiling.

| Ota-ona | Maktab | Bandlikka ko‘maklashish markazi | Korxona va tashkilotlar |
|---|---|---|---|
| • Dunyoni anglashga yordam beradi.<br>• O‘z tajribalarini sizga o‘rgatadi.<br>• Sizni shaxsiy rivojlanishingizni qo‘llab-quvvatlaydi.<br>• Sizni yutuqlaringizni rag‘batlantiradi. | • Kasblar haqida ma’lumot va axborot beradi.<br>• Siz uchun ekskursiyalar, mahorat darslari, uchrashuvlar tashkil etadi.<br>• Psixologik testlar orqali o‘zingizni chuqurroq bilib olishingizga ko‘maklashadi.<br>• Kasblarni amalda sinab ko‘rishingizga yordam beradi.<br>• O‘zingizga mos kasb tanlashingizni qo‘llab-quvvatlaydi.<br>• Karyera bo‘yicha maslahatlar beradi. | • Ta’lim olish va kasb o‘rganish bo‘yicha sizni xabardor qiladi.<br>• Sizga mos keladigan imtiyozlar haqida ma’lumot beradi.<br>• Mehnat yarmarkalarini tashkil etadi.<br>• Qisqa muddatli kasb o‘rganish kurslariga yo‘llanma beradi.<br>• Ishsizlikdan himoyalanishga ko‘maklashadi.<br>• Treninglar tashkil etadi. | • Bo‘sh ish o‘rinlarini taklif etadi.<br>• Kasbiy malakangizni oshirish uchun ustoz biriktiradi.<br>• Munosib ish sharoitini yaratadi.<br>• Amaliyot o‘tash, kasbni chuqurroq o‘rganishga ko‘maklashadi.<br>• Mehnatingizga yarasha haq to‘laydi. |

## 1.3. Maktabimning kasbga yo‘naltirish bo‘yicha takliflari




### Dunyoni anglash

3–6 yoshda bolalar kattalar dunyosi va turli kasblar haqidagi ilk g‘oyalarini faol rivojlantiradilar. Bu davr ularning qiziqishini rivojlantirish va atrofdagi dunyo qanday ishlashini tushunish uchun juda muhimdir. Bu yoshda bolalar kattalarga taqlid qilishadi, masalan, “Uy bekalari”, “Shifokor”, “Oshpaz” va hokazolarni o‘ynaydilar. Bu ularga kattalar nima qilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar o‘yinlar, surat chizish hamda ko‘rgazmali rasmlar bilan ishlash orqali dunyoni yaxshiroq anglashga o‘rgatiladi. Shuningdek, bolalarga odamlarning turli xil ijtimoiy rol va mas’uliyatlarga ega ekanligi anglatiladi.



## Axborot va ma'lumot olish



7–11 yoshda bolalar maktabning boshlang'ich sinflarida ta'lim oladi. Maktabda bolalarga mehnat nimaligi, odamlarga nima uchun kerakligi, qanday kasblar borligi tushuntiriladi. Kundalik hayotdan yorqin misollar keltiriladi: shifokor bemorlarni davolaydi, o'qituvchi bolalarni o'qitadi, oshpaz ovqat tayyorlaydi va hokazo. Maktabda bolalar turli kasblarni sinab ko'rishlari mumkin bo'lgan har xil rolli o'yinlar tashkil etiladi. Bu ularga har bir ishning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Yurtimizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga darsliklar orqali kasblar haqida ma'lumot beriladi. Masalan, 1-sinfda "Telefon qanday ishlaydi", "Insonga sport nima uchun kerak?" kabi mavzulardan boshlab, 4-sinfda "Kosmosni o'rganish", "Parrandachilik fermasi", "Me'morchilik" kabi muvzularda kasblar va kasb egalari haqida ma'lumot beriladi.

## Ekskursiya



12–14 yoshda o'smirlarda bo'lajak kasb tanlashga ongliroq munosabat shakllana boshlaydi. Ushbu davrdagi maktab o'quv dasturi ularga kelajakdagi yo'llarini tanlashda yordam berishga qaratilgan. O'smirlar turli kasblarni, ularning xususiyatlarini, talab qilinadigan ko'nikma va bilimlarni chuqurroq o'rganadilar. Ularning har birining rivojlanish istiqbollari va mehnat bozoridagi talablari bilan tanishadilar. Maktabda 7-sinf o'quvchilari uchun "Kasblar olamiga sayohat" mavzusida treninglar tashkil etiladi. O'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida ularni sanoat, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, agrotexnologiya korxona va tashkilotlariga, kasbiy ta'lim muassasalariga ekskursiyalarga olib boriladi.

# Psixologik testlar orqali o‘z-o‘zini anglash




15–16 yoshdagi o‘quvchilarga maktabda o‘zlari haqida ko‘proq bilishlari uchun alohida e’tibor beriladi. O‘quvchilar kasb.maktab.uz, profnavigator.uz, prof.maktab.uz platformalari orqali qiziqishlari, qobiliyatlari, xarakteri, temperamenti, kasbga bo‘lgan munosabatlari, kasbiy motivatsiyalari, ijtimoiy intellektini bilib oladi. Bu esa ularda o‘zlariga mos bo‘lgan kasb tanlash imkoniyatini oshiradi. Mazkur platformalar orqali o‘quvchilar kasbiy ta’lim muassasalari haqida ma’lumot oladilar, so‘rovnomalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, 8–9-sinf o‘quvchilari uchun maktablarda har yili aprel-may oylarida “Kasb va yoshlar” oyligi tashkil etiladi. Mazkur oylikda, o‘quvchilar kasbiy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan ochiq eshiklar kunlarida ishtirok etib, kasblarning o‘qitilishi bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘ladilar.

## Kasblarni amalda sinab ko‘rish

17–18 yoshda o‘quvchilar o‘zlari va kasblar haqida yetarli tushunchaga ega bo‘lib, ularni amaliyotda sinab ko‘radilar. 10–11-sinflarda kasbiy ta’lim darslari tashkil etiladi. Mazkur darsda o‘quvchilar o‘zlari qiziqqan kasblarni sinab ko‘radilar. Shuningdek, “Ustoz-shogird” an’anasi bo‘yicha darsdan tashqari kasb o‘rganishlari, ota-onasining roziligi bilan ishlashlari mumkin bo‘ladi.



## Kasb tanlash

18 yoshda o‘quvchilar maktabni tamomlab mustaqil hayotga qadam qo‘yib, karyera qarorini qabul qiladilar. Oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga topshirish, ishlash, kasbni chuqurroq o‘rganish uchun o‘quv markazlariga yoki chet elga ishlash uchun borish kabi yo‘llardan birini tanlaydi. Mazkur qo‘llanmada bu bo‘yicha batafsil ma’lumot beriladi.



## Hayot davomidagi ta’lim

bu hayot davomida vaziyat taqozosiga ko‘ra yoki o‘z qiziqishlarining o‘zgarishiga qarab insonlar turli kasblarni o‘rganishlari, malaka oshirishlari, qayta tayyorlov kurslarida o‘qishlari mumkin bo‘ladi.



Quyida ota-onangiz (vasiy), maktab tavsiya etayotgan hamda o‘zingizni qiziqtiradigan **kasblar nomini** yozib, tahlil qilishingiz mumkin.

| Ota-onam (vasiy) | Maktabim | O‘zim |
|---|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |

Keyingi sahifalarda maktabingiz sizga o‘zining kasbga yo‘naltirish takliflarini taqdim etadi.

Shunday qilib, siz o‘z faoliyatingizni yaxshiroq rejalashtirishingiz va qo‘shimcha ma’lumotni qayerdan olishni (ota-onalar, psixologlar, maktab, bandlikka ko‘maklashish markazlari, kompaniyalar) oldindan o‘ylab ko‘rishingiz mumkin.

Quyidagi sharhda siz maktabingizda tashkil etiladigan kasbga yo‘naltirish tadbirlari, qachon tashkil etilishi, kimlar mas’ul ekanligi bilan tanishasiz.

## Maktabda sinf rahbari, fan o‘qituvchisi, psixolog, kasbiy ta’lim ustasidan kelajakdagi karyerangiz bo‘yicha maslahat oling.

**1.** Sinf rahbaringiz bilan kelajakda ishlamoqchi bo‘lgan sohangiz yuzasidan maslahatlashing.

Sinf rahbarimning ismi: ______________________________

Sinf rahbarimning maslahati: ______________________________

______________________________

______________________________

**2.** O‘zingizni qiziqtirgan fan o‘qituvchisi bilan bu fanni o‘qish orqali kelajakda qanday kasb egasi bo‘lish mumkinligi va kasblarning muvaffaqiyati xususida suhbatlashing.

O‘qituvchimning ismi: ______________________________

O‘qituvchimning fikri: ______________________________

______________________________

______________________________

**3.** Maktab psixologi bilan qobiliyatingiz, kasbga moyilligingiz, xarakteringiz va unga mos keladigan kasblar haqida gaplashing.

Psixologimning ismi: ______________________________

Psixologimning xulosalari: ______________________________

______________________________

______________________________

**4.** Maktabingizda kasbiy ta’lim ustasi (KTU) bo‘lsa, undan zamonaviy kasblar, ularni egallash uchun zarur ko‘nikmalar va kasbiy muvaffaqiyatga erishish yo‘llarini so‘rang.

KTUning ismi: ______________________________

KTUning fikrlari: ______________________________

______________________________

______________________________

Quyida har bir yilda berilgan fikr, mulohazalar va xulosalarni yozib, yillar davomidagi o‘zgarishlarni tahlil qiling.

| | 7-sinf | 8-sinf | 9-sinf | 10-sinf | 11-sinf |
|---|---|---|---|---|---|
| Sinf rah-barimning ismi | | | | | |
| Sinf rah-barimning maslahati: | | | | | |
| O‘qituvchim-ning ismi: | | | | | |
| O‘qituvchim-ning fikri: | | | | | |
| Psixologim-ning ismi: | | | | | |
| Psixologim-ning xulosalari: | | | | | |
| KTUning ismi: | | | | | |
| KTUning fikrlari: | | | | | |

Quyida kelajakdagi kasbingizni topishingizda siz uchun maktabingizdagi eng muhim tadbirlarni yozishingiz mumkin.

| 7-sinf | 8-sinf |
| --- | --- |
| 9-sinf | 10-sinf |
| 11-sinf | |

Maktabdagi ustozlaringizning fikrlarini ota-onangiz (yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar)ga ko‘rsating hamda ota-onangizning sizni kasb tanlashingizdagi fikrlarini o‘rganib boring va tahlil qiling.

| | 7-sinf | 8-sinf | 9-sinf | 10-sinf | 11-sinf |
|---|---|---|---|---|---|
| Ota-onangizning fikrlari | | | | | |

***Maktabdagi ustozlar hamda ota-onangizning fikrlarini tahlil qilib o‘z xulosalaringizni bayon etib boring va karyera qarorlarini qabul qilishda foydalaning.***

| | 7-sinf | 8-sinf | 9-sinf | 10-sinf | 11-sinf |
|---|---|---|---|---|---|
| Mening xulosalarim | | | | | |

## 1.4. Karyera bo‘yicha onlayn xizmatlar

Bugungi kunda tez rivojlanayotgan dunyoda kelajakdagi martaba haqida ongli qarorlar qabul qilish har qachongidan ham muhimroqdir. Yaxshiyamki, turli kasblarni o‘rganish, mahoratingizni baholash va martaba yo‘lingizni rejalashtirishga yordam beradigan turli xil onlayn platformalar va xizmatlar mavjud. Ushbu manbalar qimmatli ma’lumotlar, diagnostika vositalari va hatto onlayn kurslarni taklif etadi – barchasi sizga to‘g‘ri kasbni topishga yordam beradi. Quyida siz kasbiy yo‘nalish va yordam uchun kirishingiz mumkin bo‘lgan ba’zi tavsiya etilgan saytlar mavjud.

Ushbu manbalarni o‘rganish orqali siz turli martaba yo‘llarini yaxshiroq tushunishingiz, kuchli tomonlaringizni kashf qilishingiz va kelajakdagi professional hayotingizga qanday tayyorlanishni o‘rganishingiz mumkin. Siz endigina martaba sayohatingizni boshlayapsizmi yoki o‘z mahoratingizni oshirmoqchimisiz, ushbu onlayn platformalar sizga muvaffaqiyatga erishishingiz uchun kerakli ko‘rsatmalarni taqdim etishi mumkin.

KASBIY MUVAFFAQIYATGA ERISHISH PLATFORMASI
https://kasb.maktab.uz/

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, tashxislash, o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan rasmiy platformasi. Platforma o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ishlaydi.

KASBIM KELAJAGIM
http://profnavigator.uz/

Respublik tashxis markazining o‘quvchilarni tashxislash kasb-hunarga yo‘naltirishga qaratilgan platformasi. Platforma o‘zbek va rus tillarida ishlaydi.

Prof.maktab.uz
https://prof.maktab.uz/

“Innovatsiya, texnologiya va strategiya” DUK tomonidan maktab bitiruvchilarini kasbga yo‘naltirish maqsadida ishlab chiqilgan. Platforma o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ishlaydi.

myway
https://myway.uz/

Kasb-hunarga yo‘naltirish, tashxislash va psixolog xizmatini taklif etuvchi onlayn platforma. Platforma rus tilida ishlaydi.

Skillbox UZ
https://skillbox.uz/ru/

Kasbga yo‘naltirishdan kasb o‘rgatishgacha bo‘lgan onlayn kurslardan iborat platforma. Patforma pullik va rus tilida ishlaydi.

**kasb.maktab.uz** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan bepul platforma. Unda 100 dan ortiq zamonaviy kasblar haqida to'liq ma'lumot berilgan.

O'quvchlarga dunyodagi top 1000 ta universitetlar hamda O'zbekistondagi barcha oliy ta'lim muassasalari haqida ma'lumotlar olish imkoniyati yaratilgan bo'lib, maxsus filtrlar orqali kerakli ma'lumotni olish mumkin.

Testlar bo'limi orqali 10 dan ortiq psixologik testlar va so'rovnomalardan o'tish hamda natijasi bo'yicha temperament, xarakterning kasbga bog'liqligini, qobiliyatni, fanlar va sohalarga qiziqishni, kasb tanlashdagi motivatsiyani, kasbga moyillikni, ijtimoiy qiziqishlarni aniqlash orqali kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasbni aniq bilib olish mumkin. Test natijalari bo'yicha shaxsiy portfolio yaratiladi.



# Men davlat xizmatlaridan qanday foydalanaman?

Siz davlat xizmatlaridan elektron hamda hududiy davlat xizmatlari markazlari orqali foydalanishingiz mumkin. Davlat xizmatlari orqali Siz davlat organlaridagi shaxsiy ma'lumotlaringiz bilan tanishishingiz, ta'lim olganingiz haqidagi rasmiy hujjatlarni olishingiz, aholiga ko'rsatiladigan turli davlat xizmatlaridan foydalanishingiz hamda sizning ijtimoiy holatingizga mos bo'lgan davlat imtiyozlaridan foydalanishingiz mumkin. Quyida siz davlat xizmatlaridan elektron portal orqali qanday foydalanishingiz mumkinligi qadamma-qadam ko'rsatib o'tilgan.

my.gov.uz

Yagona interfaol davlat xizmatlari markazi orqali siz o'zingizga tegishli bo'lgan barcha rasmiy ma'lumotlarni olishingiz, davlat xizmatlaridan foydalanishingiz mumkin.




One ID tizimi orqali ro'yxatdan o'tib






## UNUTMANG BU SIZNING SHAXSIY MA'LUMOTLARINGIZ!!!

Shaxsiy ma'lumotlardan faqat o'zingiz foydalaning. Parol va loginlarni hech kimga bermang.

## Yoshlar uchun davlat xizmatlari

**Portalda jami 600 dan ortiq davlat xizmatlari bor**

**Ta'lim yo'nalishi** bo'yicha xizmat turlari **57 ta**

**O'quvchilar** foydalanadigan xizmatlar turi **12 ta**

**Ota-onalar**ning farzandlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish xizmatlar turi **8 ta**

| TA'LIM YO'NALISHI | | | | |
|---|---|---|---|---|
| O'QUVCHI | | | | |
| T/r | XIZMAT TURINING NOMI | XIZMAT TURI | XIZMAT KO'RSATISH MUDDATI | XIZMAT NARXI |
| 1 | Chet tilini bilish darajasini aniqlash | Ariza onlayn yuboriladi va test sinovlariga yo'llanma varaqasi shaxsiy kabinetga kelib tushadi *(imtihon ko'rsatilgan obyektda bo'ladi)* | 3 kun | jismoniy shaxslar uchun 506 250 so'm (1.35 BHM) |
| 2 | Barcha fanlardan (tegishli umumta'lim va maxsus fanlardan) bilish darajasini aniqlash va milliy sertifikatni olish uchun imtihonda qatnashishga ariza berish | Ariza onlayn yuboriladi va test sinovlariga yo'llanma varaqasi shaxsiy kabinetga kelib tushadi *(imtihon ko'rsatilgan obyektda bo'ladi)* | Avtomatik tarzda | Yagona portal orqali topshirilganda miqdori - 506250 so'm (1.35 BHM) |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3 | Chet tili darajasini bilish to‘g‘risidagi sertifikatni tekshirish | Ariza onlayn yuboriladi | Avtomatik tarzda | Bepul |
| 4 | Chet tili imtihoni natijalari yuzasidan apellyatsiya berish | Ariza onlayn yuboriladi *(javob shaxsiy kabinetga kelib tushadi)* | 14 kun | Bepul |
| 5 | Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida shahodatnomaning dublikatini olish | Ariza onlayn yuboriladi *(javob shaxsiy kabinetga kelib tushadi)* | Avtomatik tarzda | Bepul |
| 6 | Abituriyentni onlayn ro‘yxatdan o‘tkazish | Ariza onlayn yuboriladi | Avtomatik tarzda | O‘quv yilidan avvalgi yillarda ta’lim muassasalarini tugatgan abituriyentlardan bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi (170000 so‘m) miqdorida to‘lov undiriladi |
| 7 | Umumta’lim fanlari va chet tilidan imtihon to‘lovini qaytarish uchun ariza berish | Ariza onlayn yuboriladi *(javob shaxsiy kabinetga kelib tushadi)* | - | Bepul |
| 8 | Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlariga topshirilgan test natijalarini bilish | Ariza onlayn yuboriladi | Avtomatik tarzda | Bepul |
| 9 | Umumta’lim fanlari imtihonlari yuzasidan apellyatsiya | Ariza onlayn yuboriladi | 14 kun | Bepul |
| 10 | Texnikumlarga onlayn hujjat topshirish | Ariza onlayn yuboriladi | Avtomatik tarzda | Bepul |
| 11 | Test sinovlari natijasi bilan tanishish | Ariza onlayn yuboriladi | Avtomatik tarzda | Bepul |
| 12 | Yuridik texnikumga o‘qishga kirish uchun ariza yuborish | Ariza onlayn yuboriladi | Avtomatik tarzda | Bepul |

| OTA-ONA | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 13 | Bolani birinchi sinfga joylashtirish | Ariza onlayn yuboriladi *(ariza koʻrib chiqilganidan soʻng yoʻllanma taqdim etiladi)* | - | Bepul |
| 14 | Akademik litseylarga qabul qilish yoki apellyatsiya uchun ariza topshirish | Ariza onlayn yuboriladi *(javob shaxsiy kabinetga kelib tushadi)* | Avtomatik tarzda | Bepul |
| 15 | Bolalar musiqa va san'at maktabiga qabul qilinishi *(oʻn olti yoshga toʻlmagan shaxs nomidan murojaat qilgan uning qonuniy vakili)* | Ariza onlayn yuboriladi *(javob shaxsiy kabinetga kelib tushadi)* | Har yili 1-iyundan 20-avgustga qadar *(shu kuni ham)* | Bepul |
| 16 | Bolalarni bir maktabdan boshqa maktabga koʻchirish uchun ariza yuborish | Ariza onlayn yuboriladi *(javob shaxsiy kabinetga kelib tushadi)* | 3 ish kuni | Bepul |
| 17 | Chet el fuqarolarining farzandlarini maktabga qabul qilish | Ariza onlayn yuboriladi *(javob shaxsiy kabinetga kelib tushadi)* | 7 ish kuni | Bepul |
| 18 | Xorijiy davlatda umumiy oʻrta va oʻrta ta'lim olganlik toʻgʻrisidagi hujjatni tan olish uchun ariza yuborish | Ariza onlayn yuboriladi *(javob shaxsiy kabinetga kelib tushadi)* | 4 ish kuni | Bepul |
| 19 | Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlariga ariza yuborish | Ariza onlayn yuboriladi *(javob shaxsiy kabinetga kelib tushadi)* | Avtomatik tarzda | Bepul |
| 20 | Ta'lim hujjatlarini nostrifikatsiyalash | Ariza onlayn yuboriladi *(javob shaxsiy kabinetga kelib tushadi)* | 17 ish kuni | Jismoniy shaxslar uchun Yagona portal orqali topshirilganda miqdori - 675000 soʻm (1.8 BHM) |

## O‘zingiz foydalanmoqchi bo‘lgan davlat xizmatlarini yozing

| Xizmat nomi | Nima maqsadda foydalanasiz? |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |

## Yoshlar uchun davlat tomonidan ajratilgan imtiyozlar

| T/r | Imtiyoz nomi | Imtiyoz turi | Imtiyozning huquqiy asosi va foydalanish bo'yicha havola |
|---|---|---|---|
| 1 | Prezident maktablari bitiruvchilariga davlat oliy ta'lim tashkilotlariga davlat granti ajratiladi | Davlat granti | https://lex.uz/docs/-5520855 |
| 2 | Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablarning bitiruvchilariga OTMlarga kirish uchun imtiyoz | To'lov-kontrakt | https://lex.uz/docs/-5520855 |
| 3 | Ijod maktablari bitiruvchilari uchun imtiyoz | Bazaviy to'lov-kontrakt asosida | https://lex.uz/docs/-5520855 |
| 4 | Xalqaro olimpiada g'oliblari uchun imtiyoz Matematika — International Mathematical Olympiad (IMO). Fizika— International Physics Olympiad (IPhO). Kimyo— International Chemistry Olympiad (IChO). Biologiya olimpiadasi — International Biology Olympiad (IBO). Informatika— International Olympiad in Informatics (IOI) | Sinovsiz va qo'shimcha imtihonsiz | https://lex.uz/docs/-4320713#-4321089 |
| 5 | B2 va undan yuqori bilish darajasiga ega sertifikat (keyingi o'rinlarda **milliy sertifikat** deb ataladi) yoki **xalqaro sertifikat**ga ega bo'lgan abituriyentlar uchun imtiyoz | Ixtisoslik fani bo'yicha maksimal ball sertifikati | https://lex.uz/docs/4332249 |
| 6 | Asosiy olimpiadalarning respublika bosqichi g'oliblari (1–3-o'rin). Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha mazkur sertifikatni olgan o'quvchilar uchun imtiyoz | Davlat imtihonlarida maksimal ball olish (sertifikat asosida) | https://lex.uz/docs/-4320713<br><br>https://lex.uz/docs/-5621189?ONDATE=28.08.2024 |
| 7 | Respublika olimpiadasi g'oliblari uchun imtiyoz | Ixtisoslik fani bo'yicha maksimal ball sertifikati | https://lex.uz/docs/-4320713#-4321089 |
| 8 | Olimpiya, Paralimpiya, Osiyo va Paraosiyo o'yinlarining oxirgi to'rt yili hamda jahon va Osiyo chempionatlarining oxirgi bir yili davomida g'olib yoki sovrindor (1–3-o'rin) bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining bitiruvchilari uchun imtiyoz | Davlat granti | https://lex.uz/docs/-1399382 |
| 9 | Respublika **1-o'rin** va xalqaro **1–5-o'rin** shaxmat va shashka turnirlari g'oliblari uchun imtiyoz | Davlat granti | https://lex.uz/docs/-1399382 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 10 | "Bolalar sport o'yinlari"ning respublika bosqichi g'oliblari uchun imtiyoz | Davlat granti | https://lex.uz/ru/docs/-4711327 |
| 11 | Musiqa, raqs, teatr, folklor va Badiiy akademiyaning tasviriy san'at yo'nalishlari bo'yicha respublikada 1-o'rin, xalqaro tanlovlarning 1–3-o'rin g'oliblari uchun imtiyoz | Davlat granti | https://lex.uz/docs/-1399382 |
| 12 | "Xalq cholg'ulari ijrochilari", Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Milliy raqs ijrochilari" va Yunus Rajabiy nomidagi "Yosh maqom ijrochilari" respublika tanlovi g'oliblari uchun imtiyoz | Qabul kvotasiga qo'shimcha davlat granti | https://lex.uz/docs/-4084926 |
| 13 | "Vatan tayanchi" harakatining faol a'zolari (10–11-sinf o'quvchilari orasidan bir nafari) uchun imtiyoz | Tavsiyanomaga ega. 5% miqdorida qo'shimcha ball | https://lex.uz/docs/-5887204 |
| 14 | Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan berilgan tavsiyanomaga ega bo'lgan bitiruvchilar uchun imtiyoz | Davlat granti 4% kvota | https://lex.uz/docs/-5320582 |
| 15 | Nogironligi (I-II guruh) bo'lgan shaxslar uchun imtiyoz | Davlat granti 2% miqdorida kvota | https://lex.uz/docs/-3436192 |
| 16 | Ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar uchun imtiyoz | Tavsiyanoma | https://lex.uz/ru/docs/4866624#4871141 |
| 17 | To'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar, bolalar mahallalari va oilaviy bolalar uylari bitiruvchilari, shuningdek, patronat yetim bolalar uchun OTMga kirish imtiyozi | Umumiy soniga qo'shimcha ravishda 1%gacha davlat granti asosidagi qabul kvotalari ajratiladi | https://lex.uz/docs/-4302023 |
| 18 | "Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohiblari uchun imtiyoz | Davlat granti | https://lex.uz/docs/-3418697 |
| 19 | O'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvaf-Faqiyatli tamomlagan bitiruvchilar Texnikumni muvaffaqiyatli tamomlagan shaxslar toifasi uchun imtiyoz | Suhbat 2-kursdan | https://lex.uz/docs/-4500926#-4501360<br><br>https://lex.uz/docs/-5818575 |
| 20 | "Temurbeklar maktabi" bitiruvchilari uchun imtiyoz | Suhbat yoki 15 foiz miqdorida ball | https://lex.uz/docs/-4417961 |
| 21 | "Zakovat" intellektual o'yini umumiy o'rta ta'lim maktablari, Prezident ta'lim muassasalari, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari hamda oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, ko'ngilli jamoalar ishtirokchilari uchun imtiyoz | Bazaviy to'lov kontrakti asosida | https://lex.uz/docs/-5834314 |
| 22 | Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohiblari uchun imtiyoz | Davlat granti | https://lex.uz/ru/docs/-213812 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 23 | “Nihol” mukofoti sovrindorlari uchun OTMlarga kirish imtiyozi | Imtiyozli ravishda | https://lex.uz/docs/-1039886 |
| 24 | “Yilning eng yaxshi tarbiyachisi” respublika tanlovi g‘oliblari uchun imtiyoz | Davlat granti | https://lex.uz/docs/-3244181#-3244230 |
| 25 | Tibbiyot muassasalari hamshiralarining “Hamshira” respublika tanlovi g‘oliblari uchun imtiyoz | Davlat granti | https://lex.uz/docs/-3244181#-3244230 |
| 26 | Oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan hokim yordamchilari uchun imtiyoz | Sirtqi ta’lim shaklida suhbat | https://lex.uz/docs/-5758155 |
| 27 | O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faol a’zosi uchun imtiyoz | Davlat granti Tavsiyanoma | https://lex.uz/docs/3409650 |
| 28 | Harbiy qism qo‘mondonligi tavsiyanomasiga ega yoshlar uchun imtiyoz | Davlat granti kvotalariga qo‘shimcha | https://lex.uz/docs/-3244181 |
| 29 | Harbiy xizmat majburiyatini (xizmat majburiyatini) bajarish chog‘ida halok bo‘lgan hamda harbiy xizmat majburiyatini (xizmat majburiyatini) bajarish chog‘ida yarador bo‘lishi, kontuziya, shikastlanish yoki kasalliklar oqibatida nogiron bo‘lib qolgan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning ofitser, serjant va oddiy askarlar tarkibiga mansub bo‘lgan kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilarining va Milliy gvardiya xodimlarining farzandlari uchun imtiyoz | Davlat granti | https://lex.uz/docs/-4939171?ONDATE=10.08.2020%20 00#-4940757 |
| 30 | Terrorizm, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash chog‘ida halok bo‘lgan yoki olgan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlari (keyingi o‘rinlarda — halok bo‘lgan xodimlarning farzandlari) uchun imtiyoz | Davlat granti | https://lex.uz/docs/-4293770?ONDATE=21.01.2023 https://lex.uz/uz/docs/-6093393#-6631078 |
| 31 | Xizmat majburiyatini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan, shuningdek, xizmat majburiyatini bajarishda olgan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan bojxona organlari xodimlarining farzandlari uchun imtiyoz | Davlat granti | https://lex.uz/ru/docs/-3680599#-4464658 |
| 32 | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy musiqa akademik litseyini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 16-fevraldagi PQ-129-son qaroriga muvofiq Harbiy musiqa akademik litseyi bitiruvchilari uchun imtiyoz | To‘plagan ballarning 15 foiz miqdorida | https://lex.uz/docs/-3244181#-3244230 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 33 | O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning farzandlari<br>Serjantlar va oddiy askarlar, Milliy gvardiyasining ofitserlar, serjantlar va oddiy askarlar tarkibi hamda xodimlari farzandlari uchun imtiyoz | Besh foizli kvota va ikki foizli kvota | https://lex.uz/docs/-4858910 |
| 34 | Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashda munosib hissa qo‘shgan, xizmat yoki ilmiy faoliyatida yuqori natijalarga erishgan Ichki ishlar vazirligi xodimlarining farzandlari uchun imtiyoz | Besh foizli kvota | https://lex.uz/docs/-4293770?ONDATE=21.01.2023 |
| 35 | Bojxona organlari xodimlarining farzandlari uchun imtiyoz | Ikki foizli davlat granti | https://lex.uz/ru/docs/-3680599 |
| 36 | O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan, harbiy qismlar qo‘mondonligining tegishli tavsiyanomalariga ega bo‘lgan fuqarolar uchun imtiyoz | Tavsiyanomalariga asosan | https://lex.uz/docs/-2018331 |
| 37 | O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tab, harbiy qismlar qo‘mondonligining tegishli tavsiyanomalariga ega bo‘lgan fuqarolar uchun imtiyoz | Tavsiyanomalariga asosan qo‘shimcha ball | https://lex.uz/docs/-2018331 |
| 38 | Qoraqalpog‘iston Respublikasi va hududlardagi o‘rmon xo‘jaliklarini O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi raisining tavsiyanomasiga asosan o‘rmonchilar va ularning farzandlari uchun imtiyoz | Davlat granti asosida 20 foiz | https://lex.uz/docs/-5037201#-5038626 |
| 39 | O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlari bitiruvchilari uchun imtiyoz | Yakka tartibda suhbat | https://lex.uz/docs/-4723315 |

## O‘zingizga ma’qul kelgan imtiyozlar ro‘yxatini tuzing

| T.r. | Imtiyoz nomi | Qachon foydalanishni rejalashtirgansiz | Imtiyozdan foydalanishdan maqsadingiz |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

## 1.5. Bandlikka ko'maklashish markazidan takliflar

**Bandlikka ko'maklashish markazi** – O'zbekistondagi Bandlikka ko'maklashish markazi sizga karyera imkoniyatlarini o'rganish va kelajagingizga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradigan qimmatli manbadir. O'quvchi sifatida siz mavjud ta'lim dasturlari, bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari va bandlik imtiyozlari haqida xabardor bo'lish uchun Markaz xizmatlaridan foydalanishingiz mumkin. Shuningdek, u sizga amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va ishchi kuchiga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradigan qisqa muddatli kasbiy tayyorgarlik kurslariga yo'llanmalar berishi mumkin. Markaz ishga shaylikni qo'llab-quvvatlash maqsadida turli treninglar va tadbirlar tashkil etib, ish beruvchilar tomonidan mehnat qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash orqali ishsizlikdan himoyalanishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu imkoniyatlar haqida ko'proq ma'lumot olish va ular taklif qilayotgan xizmatlardan foydalanish uchun mahalliy Bandlikka ko'maklashish markaziga tashrif buyuring.

Quyidagi jadvalda siz Bandlikka ko'maklashish markazlarining rasmiy veb saytlari, bog'lanish uchun telefon raqamlari va manzillari haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

### O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hududiy boshqarmalari[5]

| T.r. | Boshqarmalar | Rasmiy veb sayti | Manzili |
|---|---|---|---|
| 1. | Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi | https://qqr.mehnat.uz/oz | Telefon: +998 (61) 770-60-19<br>Manzil: 230100, Nukus sh., A.Dosnazarov ko'chasi, 64-a uy |
| 2. | Andijon viloyati Bandlik bosh boshqarmasi | https://andijon.mehnat.uz/oz | Telefon: +998 (74) 228- 31-45<br>Manzil: 170100, Andijon viloyati, Andijon sh., Navoiy ko'chasi, 126-uy |
| 3. | Buxoro viloyati Bandlik bosh boshqarmasi | https://buxaro.mehnat.uz/oz | Telefon: +998 (65) 221-59-94<br>Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro sh., I.Mo'minova ko'chasi, 1-uy |

[5] O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi rasmiy veb sayti orqali batafsil tanishing. https://gov.uz/oz/bv/departments/regional?active=114

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4. | Jizzax viloyati Bandlik bosh boshqarmasi | https://jazzax.mehnat.uz/oz | Telefon: +998 (72) 226-93-33, 226-91-18<br>Manzil: 130100, Jizzax viloyati, Jizzax sh., A.Navoiy ko'chasi, 4-a uy |
| 5. | Qashqadaryo viloyati Bandlik bosh boshqarmasi | https://qashqadaryo.mehnat.uz/oz | Telefon: +998 (75) 224-02-49, 224-04-80<br>Manzil: 180100, Qashqadaryo viloyati, Qarshi sh., Xonobod ko'chasi, 46-uy |
| 6. | Navoiy viloyati Bandlik bosh boshqarmasi | https://navoiy.mehnat.uz/oz | Telefon: +998 (79) 224-23-00<br>Manzil: 210100, Navoiy viloyati, Navoiy sh., Navoiy ko'chasi, 43-a uy |
| 7. | Namangan viloyati Bandlik bosh boshqarmasi | https://namangan.mehnat.uz/oz | Telefon: +998 (66) 227-97-90<br>Manzil: 160108, Namangan viloyati, Namangan sh., Nodira ko'chasi, 3-uy |
| 8. | Samarqand viloyati Bandlik bosh boshqarmasi | https://sbandlik.uz/regional/ | Telefon: +998 (66) 233-13-96<br>Manzil: 104157, Samarqand viloyati, Samarqand sh., Ko'ksaroy maydoni, 1-bino |
| 9. | Sirdaryo viloyati Bandlik bosh boshqarmasi | http://svbandlik.uz/ | Telefon: +998 (67) 225-04-71<br>Manzil: 700100, Sirdaryo viloyati, Guliston sh., Mustaqillik ko'chasi, 35-uy |
| 10. | Surxondaryo viloyati Bandlik bosh boshqarmasi | https://surxondaryo.mehnat.uz/oz | Telefon: +998 (76) 223-28-51<br>Manzil: 190114, Surxondaryo viloyati, Termiz sh., Sultan Saodat ko'chasi, 48-uy |
| 11. | Toshkent viloyati Bandlik bosh boshqarmasi | https://toshvil.mehnat.uz/oz | Telefon: +998 71 250-44-10<br>Manzil: 111500, Toshkent viloyati, Nurafshon shahar, Toshkent yo'li ko'chasi, Qumariq shoh mahallasi 1-uy |
| 12. | Farg'ona viloyati Bandlik bosh boshqarmasi | https://fargona.mehnat.uz/oz | Telefon: +998 (73) 244-18-50,+998 (73) 244-13-74<br>Manzil: 150100, Farg'ona viloyati, Farg'ona sh., B.Marg'iloniy ko'chasi, 4-uy |
| 13. | Xorazm viloyati Bandlik bosh boshqarmasi | https://xorazm.mehnat.uz/oz | Telefon: +998 (62) 224-12-22, +998 (62) 224-12-23<br>Manzil: 220100, Xorazm viloyati, Urganch sh., I.Dosov ko'chasi, 2-uy |
| 14. | Toshkent shahar Bandlik bosh boshqarmasi | https://toshkent.mehnat.uz/oz | Telefon: (+998 71) 207-07-31<br>Manzil: Toshkent shahar, Olmazor tumani, Sag'bon 12-tor ko'chasi (2-berk ko'cha) |

## 1.6. O‘g‘il yoki qiz bolalar uchun tavsiyalar

Ko‘pincha qizlar ta’lim, sog‘liqni saqlash, savdo, ijodiy va ijtimoiy sohalarda, o‘g‘il bolalar esa texnik va hunarmandchilik sohalarida ishlamoqda. Agar bu qaror shaxsiy profilingizga mos kelsa, bu yaxshi. Ammo boshqa kasblarni o‘rganishni istasangiz bu uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud. Siz harakat qiling va, albatta, orzuyingizdagi ishni topasiz.

O‘zbekiston qonunlarida kasblar o‘g‘il yoki qiz bola uchun alohida ajratilmagan.

Maktablarda psixologlar va kasbiy ta’lim ustalaridan kasblar va uning xususiyatlari haqida so‘rab bilishingiz mumkin.

Karyerangizni rejalashtirishda barcha (ota-onangiz, maktabingiz, internetdan olgan ma’lumotlaringiz) maslahat va ma’lumotlarni inobatga olgan holda mustaqil tanlashingiz kelajagingiz uchun muhimdir.




KASBIY MUVAFFAQIYATGA ERISHISH PLATFORMASI kasb.maktab.uz platformasida hamda maktabingiz tomonidan tashkil etiladigan ekskursiyalar, “Kasbiy muloqot oyligi”, “Ta’lim va kasb ko‘rgazmasi”, kasb egalari bilan suhbat tadbirlarida zamonaviy kasblar va ular uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar haqida ma’lumot olishingiz mumkin[6].

[6] Batafsil tanishish uchun quyidagi havolaga o‘ting https://kasb.maktab.uz/

2
qism

# MENING KARYERA YO‘LIM

Ushbu qismdagi test va tavsiyalar sizning kuchli tomonlaringiz, ko‘nikmalaringiz va maqsadlaringizni aniqlashga va hayot yo‘lingizni rejalashtirishga yordam beradi. Ulardan siz karyerangizni rejalashtirish, munosib kasblarni topish, kasbni chuqurroq o‘rganishda foydalanishingiz mumkin.

O‘zingizga quyidagi savollarni berishingiz kerak:

- Men aynan nimani yaxshiroq qila olaman?
- Meni ko‘proq nima qiziqtiradi? Men qanday qobiliyatlarga egaman?
- Men o‘zimni qanday baholayman? Boshqalar meni va ishimni qanday baholaydi?
- Mening malakam kasb-hunar, o‘rta maktab yoki o‘quv kursi talablariga qanchalik mos keladi?
- Qanday natijalarga erishdim?
- Maqsadlarimga erishish uchun bugun nima qilishim kerak?

Sizning kuchli tomonlaringiz, ko‘nikmalaringiz va maqsadlaringiz yillar davomida o‘zgaradi va rivojlanadi, shuning uchun siz ushbu savollarni doimiy ravishda o‘ylab ko‘rishingiz, sahifalarni tegishli vaqtda to‘ldirishingiz va ularni pasportingizga kiritishingiz muhimdir.

## 2.1. Mening shaxsiy profilim

Shaxsiy profilingiz bilan siz kimligingizni va nima qila olishingizni ko‘rsatasiz. Sizning tashqi ko‘rinishingiz o‘zgarganidek, qiziqishlaringiz va ko‘nikmalaringiz ham o‘zgarishi mumkin.

### Mening kuchli tomonlarim va qobiliyatlarimni baholang

Sizning kuchli tomonlaringiz, ko‘nikmalaringiz, qiziqishlaringiz va maqsadlaringizni bilish foydalidir. Shunday qilib, siz xohlagan karyera yo‘li sizga mos kelishini tekshirishingiz mumkin. Quyidagi sahifalarda profilingizni qanday shakllantirishingiz va u bilan ishlashingiz mumkinligi ko‘rsatiladi.

Yaxshi yoki juda yaxshi qila oladigan ishlaringiz sizning kuchli tomonlaringizdir.  Siz ma’lum ko‘nikmalarni aniqlashingiz va savol berishingiz mumkin.

